NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUZAFFAR MIRZO OBRAZINING BADIIY TALQINI

Siddiqova Umidaxon Soxibjon qizi
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: umidasiddiqova466@gmail.com
ORCID: 0009-0003-5132-3272

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarida Muzaffar Mirzo obrazining badiiy talqini tarixiy va adabiy manbalar asosida tadqiq etiladi. Xususan, «Sab'ai sayyor», «Saddi Iskandariy», «Munshaot» hamda soqiynomadagi madhiy matnlar tahlil qilinib, ularda Muzaffar Mirzoning nasabiy mansubligi, siyosiy mavqei, axloqiy fazilatlari va ideal hukmdor sifatidagi badiiy qiyofasi yoritiladi. Tadqiqotda Navoiy yaratgan obraz «Boburnoma» va boshqa tarixiy manbalar bilan qiyosiy o'rganilib, shoirning hukmdorlik haqidagi estetik hamda siyosiy-falsafiy qarashlari ochib beriladi. Maqolada Muzaffar Mirzo timsoli orqali adolat, ma'rifat, muruvvat, odob va sulolaviy vorislik g'oyalari badiiy ifodalangani ilmiy jihatdan asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *Muzaffar Mirzo, Alisher Navoiy, Temuriylar, Saddi Iskandariy, Sab'ai sayyor, Munshaot, Boburnoma, ideal hukmdor, badiiy talqin, madh.*

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА МУЗАФФАРА МИРЗЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация: *В данной статье исследуется художественная интерпретация образа Музаффара Мирзы в произведениях Алишера Навои на основе исторических и литературных источников. В частности, анализируются «Сабъаи сайяр», «Садди Искандари», «Муншаот», а также хвалебные тексты в составе саки-наме, в которых раскрываются родословная принадлежность Музаффара Мирзы, его политический статус, нравственные качества и художественный образ идеального правителя. В исследовании образ, созданный Навои, сопоставляется с «Бабур-наме» и другими историческими источниками, что позволяет выявить эстетические и политико-философские взгляды поэта на правительственную деятельность. В статье научно обосновывается, что посредством образа Музаффара Мирзы художественно выражены идеи справедливости, просвещения, милосердия, благонравия и династической преемственности.*

Ключевые слова: *Музаффар Мирза, Алишер Навои, Тимуриды, «Садди Искандари», «Сабъаи сайяр», «Муншаот», «Бабур-наме», идеальный правитель, художественная интерпретация, мадх.*

THE ARTISTIC INTERPRETATION OF THE IMAGE OF MUZAFFAR MIRZA IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI

Abstract: *This article examines the literary interpretation of Muzaffar Mirza in the works of Alisher Navoi based on historical and literary sources. It analyzes the panegyric passages found in Sab'ai Sayyor, Saddi Iskandariy, Munshaot, and the Saqinama, revealing the prince's genealogy, political status, moral qualities, and artistic representation as an ideal ruler. The study compares Navoi's portrayal with historical evidence, particularly the Baburnama, in order to clarify the poet's aesthetic, ethical, and political views on kingship. The article demonstrates that Muzaffar Mirza is depicted not merely as a historical prince but as a symbolic embodiment of justice, wisdom, generosity, morality, and dynastic continuity within Navoi's concept of the ideal ruler.*

Keywords: *Muzaffar Mirza, Alisher Navoi, Timurid dynasty, Saddi Iskandariy, Sab'ai Sayyor, Munshaot, Baburnama, ideal ruler, literary interpretation, panegyric.*

Kirish

Temuriylar sulolasi tarixida Sulton Husayn Boyqaro avlodlari alohida siyosiy va madaniy mavqega ega bo'lib, ularning ayrimlari Alisher Navoiy ijodida badiiy talqin etilgan. Xususan, Muzaffar Mirzo obrazi shoirning hukmdor va shahzoda haqidagi estetik hamda axloqiy qarashlarini yoritishda muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi. Alisher Navoiy asarlaridagi Muzaffar Mirzo obrazi hozirgacha, asosan, tarixiy manbalar doirasida tilga olingan bo'lib, uning badiiy talqini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan maxsus tadqiq etilmagan. Shu jihatdan mazkur maqola Navoiy ijodida Muzaffar Mirzo obrazining g'oyaviy-badiiy vazifasi hamda ideal hukmdor konsepsiyasidagi o'rnini aniqlashga qaratilgani bilan ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu obrazning mohiyatini to'laqonli anglash uchun, avvalo, uning tarixiy-nasabiy kelib

chiqishi hamda saroy muhitidagi oʻrnini yoritish zarur. Tarixiy manbalarga koʻra, Muzaffar Husayn Mirzo Sulton Husayn Boyqaro va Hadicha begimning farzandi hisoblanadi. Hadicha begim saroydagi nufuzli malikalar qatoridan oʻrin olgan boʻlib, oʻzining goʻzalligi, ziyrakligi va muomala madaniyati bilan hukmdor e'tiborini qozongan. Ana shunday muhitda voyaga yetgan Muzaffar Husayn Mirzoning nasabiy mansubligi, saroy tarbiyasi va temuriylar siyosiy hayoti bilan uzviy bogʻliq faoliyati Alisher Navoiyning uning obraziga bergan badiiy talqinini tarixiy asosda tahlil qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili

Alisher Navoiy asarlarida Muzaffar Mirzo obrazining badiiy talqinini oʻrganishda Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asari muhim tarixiy manba hisoblanadi. Unda shahzodaning nasabiy mansubligi, saroydagi mavqei va shaxsiy fazilatlariga oid ma'lumotlar keltirilgan. Navoiyning «Sab'ai sayyor», «Saddi Iskandariy», «Munshaot» va «Favoyid ul-kibar» asarlari esa obrazning badiiy xususiyatlarini yoritishda asosiy manba vazifasini bajaradi. Xususan, «Saddi Iskandariy» dostonidagi madh va nasihatlar shahzodaning ideal hukmdor sifatidagi qiyofasini ochishga xizmat qiladi. Sh. Sirojiddinov, D. Yusupova va O. Davlatovning «Navoiyshunoslik» asarida dostonning mazmuniy-gʻoyaviy xususiyatlari yoritilgan. Biroq Muzaffar Mirzo obrazining alohida badiiy talqini, uning madh va nasihatlar tizimidagi oʻrni maxsus tadqiq etishni talab qiladi. Mazkur maqolada shu masalalar tarixiy va adabiy manbalarni qiyosiy oʻrganish asosida tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada tarixiy-qiyosiy, tavsifiy va germenevtik tahlil metodlaridan foydalanildi. Alisher Navoiy asarlaridagi Muzaffar Mirzo obrazi badiiy matnlar asosida oʻrganildi. Obraz talqini «Boburnoma»dagi tarixiy ma'lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, shahzoda obrazining badiiy-estetik xususiyatlari va gʻoyaviy mazmuni ochib berildi.

Natijalar va ularning tahlili

«Sab'ai sayyor» dostonining oʻninchi bobida Alisher Navoiy Hadicha begim obrazini Temuriylar sulolasining ma'naviy va siyosiy davomiyligini ta'minlovchi timsol sifatida talqin etadi. Bu ulugʻlashning mantiqiy davomi sifatida e'tibor Hadicha begimning ikki farzandi – Shohgʻarib Mirzo va Muzaffar Husayn Mirzoga qaratiladi.

Oyu kun yoʻq agarchi monanding, Ikki sa'd axtar ikki farzanding.
Fazl aro nodiri jahon birisi, Lutf birla jahongʻa jon birisi. Birisi taxti ma'dalat shohi,
Birisi avji saltanat mohi.[1, 331]

«Ikki sa'd axtar» metaforasi ularni davlat osmonining ikki saodatli yulduzi darajasiga koʻtarar ekan, shahzodalarning sulola istiqbolidagi beqiyos oʻrnini ramziy ifodalaydi. Keyingi misralarda esa har bir shahzodaning individual fazilati alohida ta'kidlanadi: ulardan biri (Shohgʻarib Mirzo–U.S) ilm-u fazilatda tengsiz, ikkinchisi (Muzaffar Mirzo –U.S) esa muruvvat va lutf bilan xalq qalbidan joy oluvchi siymo sifatida tavsiflanadi. Demak, Navoiy hukmdor shaxsini faqat siyosiy qudrat bilan emas, balki ilm, axloq va insonparvarlik kabi fazilatlar uygʻunligida mukammallashtiradi. Ayniqsa, «Birisi taxti ma'dalat shohi, birisi avji saltanat mohi» misralari shoirning ideal hukmdor konsepsiyasini ifodalaydi.

Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asari Temuriylar sulolasining siyosiy va ma'naviy hayotini aks ettiruvchi eng muhim tarixiy manbalardan biridir. Asarning Sulton Husayn Boyqaro farzandlariga bagʻishlangan qismida Muzaffar Mirzo haqidagi tavsiflar alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tavsiflar oddiy biografik ma'lumot emas, balki shahzodaning ma'naviy qiyofasi va saroydagi mavqeini baholovchi tarixiy-portret xarakteriga ega. Muzaffar Mirzo tavsifida esa Boburning e'tibori boshqa jihatga qaratiladi. Muallif uni: «Yana bir Muzaffar mirzo edi. Sulton Husayn mirzoning suyukluk oʻgʻli bu edi.»[2, 149] deya ta'riflaydi. «Suyukluk oʻgʻli» iborasi shunchaki otalik mehrini emas, balki saroydagi siyosiy ishonch va alohida maqomni ham anglatadi. Temuriylar davlat boshqaruvi tajribasida hukmdorning eng suyukli shahzodasi koʻpincha vorislik masalasida ustun mavqega ega boʻlgan. Shu sababli Boburning ushbu qaydi tarixiy-siyosiy mazmun kasb etadi. Bobur Muzaffar Mirzoga baho berishda ham tarixchi xolisligini saqlaydi: «Agarchi xeyli suyukdek axloq va af'oli ham yoʻq edi, oʻgʻlonlari muni koʻp ortuq koʻrgʻani uchun aksar e'tiktilar.» Bu yerda muallif bir tomondan shahzodaning axloqiy kamchiliklarini yashirmaydi, ikkinchi tomondan esa uning saroydagi nufuzi yuqori boʻlganini ochiq e'tirof etadi. Natijada Bobur shaxsiy fazilat bilan siyosiy mavqeni bir-biridan farqlaydi. Aynan mana shu tarixiy xolislik Boburnoma uslubining eng muhim xususiyatlaridan biridir. Bobur qayd etgan ushbu tarixiy ma'lumotlar Navoiy asarlarida badiiy talqin asosida yanada rivojlantiriladi. Xususan, shoirning mazkur ikki shahzodaga boʻlgan alohida e'tibori uning ijodining boshqa namunalarida ham izchil namoyon boʻladi. Jumladan, Navoiy soqiynomalarining uchinchi bandini Shohgʻarib Mirzoga, toʻrtinchi bandini esa Muzaffar Mirzoga bagʻishlaydi. Bu holat shoirning mazkur shahzodalarni Temuriylar sulolasining istiqbolli va komil vorislari sifatida e'tirof etganini, ularning shaxsiy fazilatlari hamda siyosiy salohiyatiga yuksak baho berganini koʻrsatadi.

Muzaffar Husayn Mirzoga bagʻishlangan IV bandda esa madhning markazi quyidagi baytlarda mujassamlashga
Tokim ul boda bila topqach kom, Har taraf azm etibon qilsa xirom.
Har nekim komi muyassar boʻlsun, Barcha a'dogʻa muzaffar boʻlsun.[3, 686]

Mazkur misralarda shoir shahzodaga ezgu tilak bildiribgina qolmay, uning kelajakdagi siyosiy faoliyatiga nisbatan o‘z idealini ham ifodalaydi. «Komi muyassar bo‘lsun» iborasi barcha ezgu maqsadlarning ro‘yobga chiqishini anglatsa, «barcha a’dog‘a muzaffar bo‘lsun» misrasi hukmdorning asosiy fazilati sifatida zafarga erishish qobiliyatini ta’kidlaydi. Ayniqsa, «Muzaffar» so‘zining bir vaqtning o‘zida ham shahzoda ismini, ham «g‘olib», «zafar topgan» ma’nosini anglatishi ishtiqoq san’atini yuzaga keltiradi. Natijada ism va sifat o‘zaro uyg‘unlashib, shahzodaning taqdiri go‘yo uning nomidayoq mujassam ekanligi haqidagi poetik g‘oya ilgari suriladi.

«Munshaot»ning 76-maktubida Navoiy Husayn Boyqaroning oltinchi o‘g‘li Muzaffar Husayn Mirzoni quyidagi bayt orqali madh etadi: Erur saltanat jismig‘a nuri ayn,

Muzaffar Husayn ibn Sulton Husayn.[4, 603]

Hajman ixcham bo‘lgan ushbu bayt yuksak badiiy umumlashtirishga asoslangan. Navoiy Muzaffar Mirzoni tavsiflashda an’anaviy madh usulidan chekinib, uning saltanatdagi o‘rni va nufuzini yagona poetik obraz orqali ifodalaydi. «Saltanat jismi» va «nuri ayn» timsollari shahzodaning davlat hayotidagi beqiyos ahamiyatini badiiy shaklda ochishga xizmat qiladi. Shu bois Muzaffar Mirzo shaxsiy fazilatlari orqali emas, balki saltanat ravnaqi bilan uzviy bog‘liq siymo sifatida gavdalanadi. Baytda shahzodaning «ibn Sulton Husayn» tarzida tilga olinishi ham obrazning badiiy mazmunini boyitadi. Bu nisba Muzaffar Mirzoning nasl-nasabini ko‘rsatish bilan birga, uning temuriylar sulolasining munosib davomchisi ekanini ham ta’kidlaydi. Natijada obraz shaxsiy fazilatlar doirasida emas, balki sulolaviy vorislik g‘oyasi bilan uyg‘un holda talqin etiladi.

«Saddi Iskandariy» dostonining 84–85-boblari sarlavhalari va mazmuniy-kompozitsion qurilishi tahlili mazkur boblarning Sulton Husayn Boyqaroning suyukli farzandi Sulton Muzaffar Husayn Mirzo madhiga bag‘ishlanganini ko‘rsatadi. Xususan, 84-bob sarlavhasida Navoiy dastlab «Sultoni sohibqiron» madhini aytishi, so‘ng shahzoda madhini nasihatlar bilan muxtasar qilishi, undan keyin esa yetti hakim hikmatlari vositasida Iskandar hikmatlarini bayon etishini izchil ta’kidlaydi. Demak, Sulton Husayn Boyqaro madhining berilishi mazkur bobning asosiy obyekti emas, balki shahzoda madhiga o‘tishdan avvalgi muqaddimaviy qism vazifasini bajaradi.

Shuningdek, yetti hakim hikmatlarining keltirilishi ham shahzoda obrazidan mustaqil holda talqin qilinmasligi lozim. Zero, sarlavhada mazkur hikmatlarning shahzodaga ochib berilishi alohida qayd etilgan. Bob yakunidagi duo esa mazmuniy va kompozitsion jihatdan Muzaffar Husayn Mirzo madhini yakunlovchi unsur sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan 84–85-boblar o‘zaro uzviy bog‘langan yagona kompozitsion butunlikni tashkil etadi.

Mavjud navoiyshunoslik tadqiqotlarida esa ushbu boblar, xususan, 84-bob Sulton Husayn Boyqaro va uning o‘g‘illari madhiga, 85-bob esa yetti hakim hikmatlariga bag‘ishlangan, deya talqin qilinadi. Jumladan, Sh. Sirojiddinov va boshqalar tomonidan nashr etilgan «Navoiyshunoslik» kitobida ham mazkur qarash kuzatiladi.[5, 164] Biroq bizning tadqiqotimizda bob sarlavhalarining mazmuniy yo‘nalishi, madh–nasihat–hikmat–duo munosabati hamda ikki bob o‘rtasidagi kompozitsion uzviylik asosida masalaga yangicha yondashiladi. LXXXIV (84-bob): «Ul shahzodai sipehrjanob madhikim, xurshedu oy qiron qilg‘onda tuqqan sa’d axtardurur va sarvu gul muqorin bo‘lg‘onda ochilg‘on g‘unchai suxanvar va doston ibtidosini sultoni sohibqiron madhida bir necha durfishonliq bila muzayyan qilmoq va guzorish debochasini Skandari davron sanosida bir necha guharrezliq bila murassa’ etmak va shahzoda madhin nasoyih bila ixtisor qilmoq va yeti hakim bila Iskandar hikmatlarin anga oshkor aylamak va so‘ngra qoyil o‘z zodai tab’i iki la’li otashin aning qulog‘ig‘a loyiq va iki durri samin aning istimoig‘a muvofiq nazm silkiga tortmoq va duo javohiri bila xatm qilmoq.»

Navoiy «Xamsa»sida Temuriy shoh va shahzodalar obrazlarining kompozitsion joylashuvi

T/r	Xamsa	Muqaddima	Asosiy qism	Xotima
1.	Hayrat ul-abror		Husayn Boyqaro	Badiuzzamon Mirzo
2.	Farhod va Shirin	Husayn Boyqaro, Badiuzzamon Mirzo		Shohg‘arib Mirzo
3.	Layli va Majnun	Husayn Boyqaro, Badiuzzamon Mirzo		Sulton Uvays
4.	Sab’ai sayyor	Husayn Boyqaro		
5.	Saddi Iskandariy	Husayn Boyqaro, Badiuzzamon Mirzo	Abusaid Mirzo	Muzaffar Mirzo

«Xamsa» dostonlarining kompozitsion qurilishiga e’tibor qaratilganda, Temuriy hukmdor va shahzodalar obrazlarining dostonlararo joylashuvi tasodifiy emasligi, balki har bir asarning g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishi bilan uzviy bog‘langanligi kuzatiladi. Mazkur obrazlarning muayyan kompozitsion nuqtalarda joylashtirilishi Navoiy tomonidan tarixiy shaxsning nomini qayd etishdan ko‘ra kengroq maqsad ko‘zlanganini, ya’ni ularni dostonning yetakchi g‘oyalarini ochishga xizmat qiluvchi badiiy-ma’naviy mezon sifatida qo‘llaganini ko‘rsatadi.

Mazkur sarloha 84-bobning mazmuniy yoʻnalishi bilangina cheklanmay, uning keyingi 85-bob bilan uzviy kompozitsion aloqasini ham belgilab beradi. Unda shahzoda madhini keltirish, avvalo, uning otasi Sulton Husayn Boyqaro madhini bayon etish, soʻngra Iskandar va yetti hakim hikmatlari vositasida shahzodaga pand-nasihat yetkazish, nihoyat, muallifning oʻz nasihatlari hamda duo bilan yakunlash poetik dastur sifatida belgilangan. Asarda ushbu dastur bosqichma-bosqich amalga oshirilib, dastlab Sulton Husayn Boyqaroning hukmdorlik maqomi va fazilatlari ulugʻlanadi, shundan soʻng uning oliy nasabi va farzandlari taʼrifiga oʻtiladi. Jumladan, valiahd Badiuzzamon Mirzoning fazilatlari yoritilib, uning «Farhod va Shirin» dostoniga daxldorligi qayd etiladi. Keyingi kompozitsion bosqichda esa Sulton Muzaffar Husayn Mirzo madh etilib, uning shahzodalik maqomi, nasliy mavqei va shaxsiy fazilatlari poetik jihatdan asoslanadi. 84-bob madh va duo bilan yakunlangach, mazkur sarlohada avvaldan koʻzda tutilgan hikmat va nasihat qismi 85-bobda davom ettiriladi. Unda yetti hakimning hikmatlari hamda Iskandarning pandlari orqali shahzodaga hukmdorlik, ilm, aql, axloq va hayot tajribasiga oid mezonlar anglatiladi. Shundan keyin Navoiy oʻzining «zodai tabʼi» boʻlgan ikki hikmatini ham shahzodaga loyiq koʻrib, nasihatlar silsilasini shaxsiy murojaat bilan toʻldiradi va duo bilan yakunlaydi. Demak, 84-bob sarlohasi keyingi bobning mazmunini oldindan belgilovchi kompozitsion kalit vazifasini bajaradi: 84-bobda madhiy qism shakllantirilsa, 85-bobda ushbu madhning tarbiyaviy-maʼrifiy mohiyati ochiladi. Shu jihatdan ikki bobni alohida mazmuniy birliklar sifatida emas, balki Sulton Muzaffar Husayn Mirzoning madhidan boshlanib, uni hukmdorlikka tayyorlovchi nasihat va duo bilan yakunlanuvchi yaxlit poetik-kompozitsion tizim sifatida baholash mumkin.Bizningcha, 84–85-boblarning asosiy badiiy obyekti Sulton Muzaffar Husayn Mirzo boʻlib, Sulton Husayn Boyqaro madhidan yetti hakim hikmatlarigacha boʻlgan barcha unsurlar shahzoda obrazining badiiy-maʼnaviy qiyofasini ochishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur boblarni Muzaffar Husayn Mirzo madhiga bagʻishlangan yagona kompozitsion majmua sifatida baholash ilmiy jihatdan asosli koʻrinadi.

Muzaffar Mirzo madhida shoir uning yuksak nasabini, temuriylarga xos hukmdorlik salohiyatini va kelajakdagi siyosiy maqomini taʼkidlaydi. Xususan, shahzodaning «yetti pushti» va «atodin ato xon» istilohlari sultonlar sulolasiga mansubligi haqidagi taʼrif hukmdorlik legitimligini ifodalovchi badiiy vosita vazifasini bajaradi. Bu oʻrinda nasab saltanatni boshqarishga tarixiy va maʼnaviy haqdorlik ramzi sifatida talqin etiladi. Shuningdek, 84-bobda Badiuzzamon Mirzo va Muzaffar Mirzolarning birgalikda madh etilishi ham muhim poetik yechimdir. Navoiy ularni oddiy shahzodalar sifatida emas, balki Iskandar timsolida ifodalangan ideal hukmdor modelining Temuriylar davridagi davomchilari sifatida koʻrsatadi. Demak, dostonning xotima qismida tarixiy Iskandardan zamonaviy Temuriy shahzodalarga oʻtuvchi gʻoyaviy koʻprik vujudga keladi. Shu tariqa shoir ideal hukmdor haqidagi nazariy qarashlarini bevosita Temuriylar sulolasining kelajagi bilan bogʻlaydi.Yeti pushti olamgʻa sulton kelib,Atodin ato xon, bin xon kelib.Ato Shohi gʻoziyu ul nuri ayn,Muzaffar Husayn ibni Sulton Husayn.Alal-olamina doma ehsonahu,Lahu xalladallohu sultonahu.Taolilloh, asru ajab zot erurKi, olamgʻa andin mubohot erur.Zafargʻa qarin farrux oti aning,Bori aybdin pok zoti aning.Adab taxtining mehri afloki ul,Hayo bahrining gavhari poki ul.[6, 504]Mazkur baytlarda Alisher Navoiy Muzaffar Mirzo obrazini hukmdorlik konsepsiyasi doirasida izchil badiiy talqin qiladi. Dastlab shoir shahzodaning temuriylar sulolasiga mansubligini taʼkidlab, uning hukmdorlik huquqini tarixiy va sulolaviy asos bilan mustahkamlaydi. Shundan soʻng shoir Muzaffar Mirzoning shaxsiy fazilatlarini tasvirlashga oʻtadi. Uning nomi «zafar» bilan bogʻlanishi kelajakdagi gʻalabalar va davlat qudratiga ishora qilsa, «bori aybdin pok zoti» taʼrifi hukmdorning axloqiy komilligini ifodalaydi. Navoiy nazarida siyosiy qudrat maʼnaviy poklik bilan uygʻunlashgandagina haqiqiy hukmdorlik vujudga keladi. Baytlarda hukmdor shaxsining maʼnaviy qiyofasi «adab» va «hayo» timsollari orqali yanada chuqurlashtiriladi. Shoir «Adab taxtining mehri afloki ul, Hayo bahrining gavhari poki ul» deya Muzaffar Mirzoni odob va iffatning oliy namunasi sifatida ulugʻlaydi. Bu yerda «taxt» davlat ramzi boʻlsa, «adab» uning maʼnaviy poydevori sifatida talqin etiladi. Muzaffar Mirzoga yoʻllangan arabcha duo («Alal-olamina doma ehsonahu, Lahu xalladallohu sultonahu») ham bejiz keltirilmagan. Unda shoir shahzodaning ehsoni va saltanati boqiy boʻlishini tilaydi. Bu esa hukmdorlikning ilohiy marhamat va adolat tamoyillari bilan chambarchas bogʻliqligini ifodalaydi.Kelib qahridin doʻzax oʻtigʻa bim,Vale xulqi jannat gulidin nasim.Kichik yoshliq, ammo ulugʻ qadrlik,Hilolida maʼlum oʻlub badrlik.Necha sher boʻlsun kichik, gar ulugʻ,Erur savlati birla el qaygʻulugʻ.Ulus chehrai olamafruzidin,«Bilur yil kelishini Navroʻzidin».Chu vasfin bayon qilmoq oson emasKi, poyonigʻa yetmak imkon emas.Nasihat tariqin shior aylayin,Duo birla-oʻq ixtisor aylayin.[6, 504]Mazkur baytlarda Navoiy Muzaffar Mirzo obrazini ideal hukmdorning amaliy fazilatlari orqali yanada mukammallashtiradi. Dastlab shoir hukmdorning qahr va lutf sifatlarini oʻzaro muvozanatda tasvirlaydi. «Kelib qahridin doʻzax oʻtigʻa bim, vale xulqi jannat gulidin nasim» misralarida hukmdorning dushmanga nisbatan qatʼiy va shiddatli, raiyatga nisbatan esa mehribon va muloyim boʻlishi zarurligi taʼkidlanadi. Bu qarash Sharq siyosiy tafakkurida adolatli podshohning eng muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. Navoiy nazarida hukmdorning qudrati uning shafqatsizligida emas, balki kuch va rahm-shafqatni oʻrinli uygʻunlashtira olishidadir. Keyingi baytda shoir Muzaffar Mirzoning yoshiga alohida eʼtibor qaratadi. «Kichik yoshliq, ammo ulugʻ qadrlik» misrasi biologik yosh bilan siyosiy va maʼnaviy kamolot bir xil tushuncha emasligini anglatadi. «Hilolida maʼlum oʻlub badrlik» tashbehi esa shahzodaning hali kamolot yoʻlining boshida boʻlsa-da, kelajakda toʻlin oy singari mukammal hukmdorga aylanish salohiyatiga ega ekanini ifodalaydi. Hilol va badr obrazlari hukmdor shaxsining tadrijiy kamolotini

ifodalovchi yuksak poetik vosita sifatida xizmat qiladi. «Necha sher bo‘lsun kichik, gar ulug‘, erur savlati birla el qayg‘ulug‘» baytida esa Muzaffar Mirzoning tabiiy hukmdorlik salohiyati ramziy timsol orqali ochiladi. Sher Sharq adabiyotida saltanat, jasorat va hukmronlikning an’anaviy ramzi hisoblanadi. Shoir yosh sherning ham tug‘ma qudrati katta shernikidan kam bo‘lmasligini ta’kidlab, Muzaffar Mirzoning yosh bo‘lishiga qaramay, hukmdorlik salobati va siyosiy irodasi shakllanganini badiiy asoslaydi. Demak, hukmdorlik salohiyati yosh bilan emas, fitriy iste’dod va shaxsiy fazilat bilan belgilanadi. «Ulus chehrai olamafruzidin,»Bilur yil kelishini Navro‘zidin«» baytida esa Muzaffar Mirzoning jamiyat hayotidagi o‘rni Navro‘z timsoli orqali yoritiladi. Navro‘z qanday yangi yil va farovonlikning boshlanishi bo‘lsa, shahzoda ham davlat istiqbolining yangi bosqichi sifatida talqin etiladi. Bu poetik qiyos Muzaffar Mirzoning kelajak hukmdori sifatidagi umid va ishonch timsoliga aylanganini ko‘rsatadi. Shoirning «Chu vasfin bayon qilmoq oson emas, ki poyonig‘a yetmak imkon emas» degan e’tirofi madhning badiiy kulminatsiyasini tashkil etadi. Bu o‘rinda Navoiy Muzaffar Mirzoning fazilatlarini sanab tugatishning imkonsizligini ta’kidlab, uning komilligini mubolag‘a san’ati orqali yuksak darajada ulug‘laydi. 85-bobda Arastu hikmati orqali shahzodaga olamning beqarorligi va foniyligi, Haqning boqiyligi, Allohni unutmaslik, insonlarga marhamat ko‘rsatish hamda o‘ziga ravo ko‘rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko‘rmaslik kabi axloqiy mezonlar uqtiriladi. Filotun nasihatida esa saltanat va shon-shuhratning Haq inoyati bilan berilishi, hukmdorning ilohiy amrga itoati, raiyat va sipohga munosabatda mas’uliyatli bo‘lishi, davlat ne’matini isrof va manmanlikka emas, manfaatli ishga sarflash zarurligi ta’kidlanadi. Keyingi hikmatlarda hukmdorning jahongirlikka intilishida tadbirli bo‘lishi, harbiy yurishlarda maqsad va zaruratni ko‘zlashi, lashkarni tartib bilan boshqarishi, siyosatda izchillik va qat’iyatni saqlashi lozimligi ko‘rsatiladi. Shu tariqa yetti hakim va Iskandar hikmatlari orqali shahzodaga faqat shaxsiy fazilatlar emas, balki kelajakdagi hukmdor faoliyatining axloqiy, siyosiy, ma’rifiy va ijtimoiy asoslari singdiriladi. Navoiy esa mazkur hikmatlar silsilasini o‘zining ikki nasihati bilan yakunlab, avvalo shariatni mahkam tutish va barcha ishda uning hukmlariga ergashishni, ikkinchidan, ota-onaga xizmat qilishni farzi ayn sifatida anglashni tavsiya etadi. Demak, bobdagi nasihatlar tizimi e’tiqod va shariatdan boshlanib, adolat, raiyatga munosabat, davlatni boshqarish, ilm va aql, ota-onaga hurmat kabi fazilatlarni qamrab olgan yaxlit tarbiyaviy konsepsiyani yuzaga keltiradi. Mazkur hikmatlarning bevosita Muzaffar Husayn Mirzo madhidan keyin berilishi ularni shahzodaning kelajakdagi hukmdorlik maqomiga yo‘naltirilgan poetik dastur darajasiga ko‘taradi. Biroq ularning mazmuni faqat bir shahzoda doirasida chegaralanmay, Navoiy tasavvuridagi komil Temuriy shahzoda va kelajak hukmdor uchun zarur bo‘lgan umumiy axloqiy-siyosiy mezonlarni ifodalaydi. Shu ma’noda 85-bob Muzaffar Husayn Mirzoga bag‘ishlangan bobning mantiqiy yakuni bo‘lish bilan birga, jamiki Temuriy shahzodalar uchun ilm, adolat, shariat, raiyatparvarlik, tadbir va ota-onaga ehtiromni mujassam etgan dasturulamal mohiyatini kasb etadi.Diqqatga sazovor jihati shundaki, mazkur bobda Sulton Husayn Boyqaroning o‘g‘illari orasidan aynan Badiuzzamon Mirzo va Muzaffar Mirzo madh etiladi, holbuki tarixan Muzaffar Mirzodan yoshi katta bo‘lgan Shohg‘arib Mirzo tilga olinmaydi. Bu holat tasodifiy badiiy tanlov emas, balki dostonning hukmdorlik konsepsiyasi bilan bog‘liq poetik yechim sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa

Alisher Navoiy ijodida Temuriy shahzodalar obrazlari tarixiy asos va badiiy ideal uyg‘unligida yaratilgan. Shoh G‘arib Mirzo obrazi ilm-ma’rifat, ijodkorlik va ma’naviy kamolot timsoli sifatida talqin etiladi. Badiuzzamon va Muzaffar Mirzo obrazlari esa hukmdorlik mas’uliyati hamda sulolaviy davomiylik g‘oyalarini ifodalaydi. Shahzodalar madhida shoirning axloqiy-ma’rifiy qarashlari ham muhim o‘rin tutadi. Adolat, odob, hayo va muruvvat hukmdor shaxsiga xos zarur fazilatlar sifatida yoritiladi. Tarixiy manbalar bilan qiyoslash Navoiy voqelikni ijodiy-estetik maqsad asosida qayta talqin qilganini ko‘rsatadi. «Saddi Iskandariy» dostonining 84–85-boblari mazmunan o‘zaro bog‘liq holda talqin etilishi mumkin. Bu bog‘liqlik Muzaffar Mirzo madhini hukmdorlikka oid pand-nasihatlar bilan uyg‘unlashtiradi. Muzaffar Mirzo obrazi orqali komil hukmdorga xos ma’naviy va siyosiy fazilatlar badiiy ifodalanadi. Demak, Navoiy shahzodalar obrazlari vositasida komil inson va komil hukmdor haqidagi qarashlarini o‘zaro aloqador tarzda yoritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy A. To‘la asarlar to‘plami: 10 jildlik. 7-jild. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. – 696 b.

2. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома / Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. – Тошкент: Ёлдузча, 1989. – 368 б.

3. Navoiy A. To‘la asarlar to‘plami: 10 jildlik. 4-jild. Favoyid ul-kibar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. – 840 b.

4. Navoiy, Alisher. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 9-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 768 b.

5. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. 1-kitob: darslik. – Toshkent: «Tamaddun», 2018. – 520 b.

6. Navoiy A. To‘la asarlar to‘plami: 10 jildlik. 8-jild. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. – 704 b.

REFERENCES

1. Navoiy A. To‘la asarlar to‘plami: 10 jildlik. 7-jild. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. – 696 b.

2. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma / Nashrga tayyorlovchi P. Shamsiyev. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. – 368 b.

3. Navoiy A. To‘la asarlar to‘plami: 10 jildlik. 4-jild. Favoyid ul-kibar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. – 840 b.

4. Navoiy, Alisher. To‘la asarlar to‘plami: 10 jildlik. 9-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 768 b.

5. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. 1-kitob: darslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018. – 520 b.

6. Navoiy A. To‘la asarlar to‘plami: 10 jildlik. 8-jild. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. – 704 b.